

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar – dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 34 695,9 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,7 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 33 175,2 mlrd. so'mni (103,6 %), o'rmon xo'jaligi – 1 250,5 mlrd. so'mni (102,7 %), baliqchilik xo'jaligi – 270,1 mlrd. so'mni (116,9 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Toshkent viloyatining ulushi 9,6 %ni tashkil etdi.



34 695,9

Toshkent viloyati bo'yicha
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm

01



33 175,2

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar

02



1 250,5

O'rmon xo'jaligi


03




270,1

Baliqchilik xo'jaligi

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati, %da




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari



2022- yilning yanvar – dekabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 96,3 %i-dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,6 %i – o‘rmon xo‘jaligi, 0,8 %i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2022- yilning yanvar – dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Bekobod (3 429,2 mlrd. so‘m) Bo‘stonliq (2 766,6 mlrd. so‘m) va Quyi Chirchiq (2 737,8 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Yangiyo‘l (48,5 mlrd. so‘m), Nurafshon shahar (63,7 mlrd. so‘m) va Ohangaron (64,4 mlrd. so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘shish sur‘atlari Yangiyo‘l (125,3 %), Chirchiq (112,3 %), Bekobod tuman (108,9 %) va Bekobod (108,0 %) shaharlarida kuzatildi. Nurafshon shahar (86,2 %), Piskent (98,4 %) va Qibray (98,4 %) tumanlarida esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022- yilning yanvar – dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 32 711,1 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,6 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 16 177,7 mlrd. so'mni (104,7 %), chorvachilik mahsulotlari – 16 533,4 mlrd. so'mni (102,5 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

49,4 %
Dehqonchilik mahsulotlari




50,6 %
Chorvachilik mahsulotlari

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




■ Dehqonchilik mahsulotlari ■ Chorvachilik mahsulotlari

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 66,5 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 16,9 % – fermer xo'jaliklariga, 16,6 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)





2022- yilning yanvar – dekabr oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Bo'ka tumanida (31,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Bekobod shahrida (99,8 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Quy Chirchiq tumanida (60,3 %) qayd etildi.




Dehqonchilik mahsulotlari

2022- yilning yanvar – dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 16 177,7 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,7 %ni tashkil etdi. yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 49,4 %ni tashkil qildi.

Donli ekinlar



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**





2022– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 618,2 ming t. don va dukkakli don (2021– yilning yanvar – dekabriga nisbatan 8,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Don va dukkakli don ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 50,1 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Toshkent viloyati bo'yicha
donli ekinlar yetishtirish
hajmi, tonna**



Kartoshka



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 374,6 ming t. kartoshka (2021– yilning yanvar – dekabriga nisbatan 7,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 77,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Toshkent viloyati bo'yicha
kartoshka yetishtirish
hajmi, tonna**




Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2022- yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 799,1 ming t. sabzavotlar (2021- yilning yanvar – dekabriga nisbatan 2,7 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirildi ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirildi umumiy hajmidan 81,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Toshkent viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish,
tonna**



Poliz ekinlari



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**





2022– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 65,2 ming t. poliz (2021- yilning yanvar – dekabriga nisbatan 119,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 64,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Toshkent viloyati bo'yicha poliz ekinlari yetishtirish hajmi, tonna



Meva va rezavorlar



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 90,7 t. meva va rezavorlar (2021– yilning yanvar – dekabriga nisbatan 4,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva va rezavorlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar ishlab chiqarish umumiy hajmidan 69,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Toshkent viloyati bo'yicha
meva va rezavorlar yetishtirish
hajmi, tonna**




Uzum


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 103,2 t. uzum (2021– yilning yanvar – dekabriga nisbatan 2,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 55,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Toshkent viloyati bo'yicha
uzum yetishtirish
hajmi, tonna**






Chorvachilik mahsulotlari



2022- yilning yanvar – dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 16 533,4 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,6 %ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulot-larining ulushi 50,6 %ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2022- yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 282,6 ming t. goʻsht (2021- yilning yanvar – dekabriga nisbatan 1,8 %ga koʻp), 968,4 ming t. sut (1,1 %ga koʻp), 1 441,1 mln. dona tuxum (4,4 %ga koʻp), yetishtirildi va 15 233,4 t. baliq (15,1 %ga koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2022- yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 282,6 ming t. go'sht (2021- yilning yanvar – dekabriga nisbatan 1,8 %ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 79,5 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Toshkent viloyati bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish, tonna



Sut



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2022- yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 968,4 ming t. sut (2021- yilning yanvar – dekabriga nisbatan 1,1 %ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 91,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Toshkent viloyati bo'yicha sut yetishtirish, tonna



Tuxum



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 441,1 mln. dona tuxum (2021- yilning yanvar – dekabriga nisbatan 4,4 %ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yichtahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy 67,6 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Toshkent viloyati bo'yicha
tuxum yetishtirish,
ming dona**




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 15 233,4 t. (2021- yilning yanvar – dekabriga nisbatan 15,1 %ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan, baliqchiliklar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 85,9 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Toshkent viloyati bo'yicha ovlangan baliqlar, tonna





Chorva mollari va parrandalar bosh soni, ming bosh




2023– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 85,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 31,3 % i fermer xo'jaliklariga, 62,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumiy sonidan 19,4 % i fermer xo'jaliklariga, 75,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 2,1 % i fermer xo'jaliklariga, 57,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 40,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2023- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 978,3 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 20,0 ming taga (2,1 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 85,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.





Toshkent viloyati
bo'yicha **yirik shoxli**
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh




2023- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 418,0 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 7,7 ming taga (1,9 %) ko‘paydi.

Sigirlar




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 89,5 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.





Toshkent viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2023- yilning 1–yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1 086,2 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 14,3 ming taga (1,3 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1–yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 62,0 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.





Toshkent viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh




2023- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 56 274 taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 662 taga (1,2 %) ko‘paydi.

Otlar



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 75,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.





Toshkent viloyati bo'yicha **otlarning** umumiy bosh soni, bosh




2023- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 16 231,4 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni 693 ming taga (4,5 %) ko‘paydi.

Parrandalar




Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 57,0 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Toshkent viloyati bo'yicha parrandalar ning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 71-202-86-69
• 99-444-34-06